



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “30” mart

06-01824 - son

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**Toshkent tibbiyot akademiyasining murojaatlar bilan ishlash borasida
amalga oshirilgan ishlar yuzasidan 2023- yil yanvar-mart oylari uchun
tahliliy yozma axborot**

Toshkent tibbiyot akademiyasida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini so‘zsiz va o‘z vaqtida bajarish asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Prezident Xalq qabulxonasi, veb-sayt, elektron pochta, yozma va og‘zaki, ishonch telefoni orqali akademiyaga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarning ijrosi so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlari yetarli darajani tashkil etilmoqda. Akademiyaning rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlar orqali hamda qonunchilikda belgilangan boshqa yo‘llar bilan yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi natijalarini tizimli, yoritishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar muntazam ishlab chiqilmoqda.

2023-yil yanvar-mart oylari davomida tibbiyot ta’lim tizimida murojaatlar bilan ishlashning holati to‘g‘risida talabalar (anonim so‘rovnomalar) va ota-onalari, jamoatchilik fikrini o‘rganib borish va ularning natijalari haqida akademiya jamoasini ilmiy kengash va haftalik apparat yig‘ilishlarida muntazam xabardor qilib borildi. Akademiyada jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlar bilan ishlashda ochiqlik va shaffoflikni yanada kengroq ta‘minlash maqsadida shaxsan rektor A.Q.SHadmanov tomonidan nazorat etiladi. TTAda akademiya rektori A.Q.SHadmanov va mas‘ullarning murojaatchilarni qabul etish qabul jadvaliga asosan payshanba soat 15:00 dan 17:00 gacha shaxsiy qabullarni tashkil qilingan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha mas‘ullarning qabullari tasdiqlangan jadval asosida olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarini tahlil qilish va akademiyaning haftalik (dushanba kuni) apparat yig‘ilishlarida murojaatlar ijrosini tanqidiy muhokama etib borilishini ta‘minlash murojaatlar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i D.D.Achilov tomonidan muntazam amalga oshirilmoqda, apparat yig‘ilishlarida hisobotlar berilmoqda va shaxsan rektor tomonidan yig‘ilishlarida muhokama etilmoqda. Jismoniy va

yuridik shaxslarning murojaatlarni 2023- yil yanvar-mart oylarida qilingan ishlar umumlashtirilib, tahlil qilinib, hisobot shakllari asosida oʻrnatilgan tartibda tegishli vazirliklarga akademiya boʻyicha masʼul F.SH.Tuxtaxodjayeva tomonidan oʻz muddatlarida taqdim etilmoqda.

Akademiya fuqarolarning murojaatlari boʻyicha ish yuritishni tizimli ravishda tashkil etilgan. Yeb saytdan (rektor virtual qabulxonasi)-13 ta, yozma- 5 ta, ogʻzaki- 14 ta. Jami 32 ta murojaat tushdi. 30 ta murojaat ijrosi taʼminlandi, 3 ta murojaat oʻrganish jarayonida.

Akademiya rektorining OAVda chiqishlar soni:

1. 2023- yil 14- fevral Koreya, hamkorlar tashrifi. KOFIH tashkiloti vakillarini qabul qildi. Oʻzbekiston 24, Radio Oʻzbekiston, Kun uz, Yangi Oʻzbekiston gazetasida yoritildi.
2. 2023-yil 16- fevral Hindistonning Telangano Shtati Haydarobod shahrida TTA ning vakolatxonasi ochilish tadbirida etdi. Oʻzbekiston 24, Radio Oʻzbekiston, Kun uz, Yangi Oʻzbekiston gazetasida yoritildi.
3. 2023- yil 1- mart Zulfiya tavalludiga bagʻishlangan tadbirda ishtirok etdi. Oʻzbekiston 24, Radio Oʻzbekiston, Kun uz, Yangi Oʻzbekiston, Narodnoye Slovo gazetasida yoritildi.
4. 2023- yil 6- mart 8 mart bayrami munosabati bilan bayram tadbirlarida ishtirok etdi. Oʻzbekiston 24, Radio Oʻzbekiston, Kun uz, Yangi Oʻzbekiston, Narodnoye Slovo gazetasida yoritildi.
5. 2023- yil 9- mart Buxoro tibbiyot instituti yangi binosi ochilish tadbirida ishtirok etdi. Oʻzbekiston 24, Radio Oʻzbekiston, Kun uz, Yangi Oʻzbekiston, Narodnoye Slovo gazetasida yoritildi.

2023- yil mart-aprel oylari davomida Jismoniy va yuridik shaxslarning qabuli boʻyicha chorakli hisobotlar tahlili, akademiya rasmiy veb sayti (www.tma.uz) da jismoniy va yuridik shaxslarning qabuli rukniga joylashtirildi. Ruknda murojaatlar boʻyicha maʼlumotlar hisobotlari tizimli ravishda berib borilishi taʼminlanmoqda. Akademiya 2023-yil yanvar-mart oylari davomida murojaatlarni koʻrib chiqish yakunlari boʻyicha hech qanday kamchiliklar va qoidabuzarliklarga yoʻl qoʻyilmadi.

Rektor



A.Shadmanov